FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 81'373.612.2:811.134.2:811.512.133

**Achilova Zulxumor Po‘latovna,**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

# ISPAN VA O‘ZBEK TILLARIDA “YOSH/EDAD” KONSEPTINING MILLIY-MADANIY KODLARI VA KOGNITIV MODELLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ispan va o‘zbek tillarida “Yosh/Edad” konseptining milliy-madaniy kodlari hamda kognitiv modellari qiyosiy-lingvokognitiv jihatdan tadqiq etiladi. Inson yoshining biologik, ijtimoiy, psixologik va madaniy hodisa sifatidagi mazmuni, uning ikki xalqning lisoniy ongida shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalik, yoshlik, yetuklik va keksalik bosqichlariga oid leksik birliklar, frazeologik ifodalar hamda obrazli birikmalarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, yosh konseptining biologik, vaqt, tabiiy, ijtimoiy va aksiologik kodlari aniqlanib, ularning ispan va o‘zbek tillarida ifodalanishidagi mushtarak hamda farqli jihatlar ochib beriladi. Tahlil natijalari yosh kategoriyasi universal biologik asosga ega bo‘lsa-da, uning konseptual mazmuni xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va milliy qadriyatlari ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** yosh, edad, konsept, lingvokulturologiya, kognitiv model, milliy-madaniy kod, konseptuallashuv, biologik kod, vaqt kodi, ijtimoiy kod, aksiologik xususiyat, ispan tili, o‘zbek tili.

# НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ И КОГНИТИВНЫЕ МОДЕЛИ КОНЦЕПТА «ВОЗРАСТ/EDAD» В УЗБЕКСКОМ И ИСПАНСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация**. В статье исследуются национально-культурные коды и когнитивные модели концепта «Возраст/Edad» в узбекском и испанском языках в сопоставительном лингвокогнитивном аспекте. Анализируются биологическое, социальное, психологическое и культурное содержание возраста человека, а также особенности его формирования в языковом сознании двух народов. Особое внимание уделяется лексическим единицам, фразеологическим выражениям и образным сочетаниям, связанным с этапами детства, юности, зрелости и старости. Выявляются биологический, временной, природный, социальный и аксиологический коды концепта «Возраст/Edad», рассматриваются их общие и национально-специфические особенности в испанском и узбекском языках. Результаты исследования показывают, что, несмотря на универсальную биологическую основу, концептуальное содержание возраста формируется под влиянием исторического опыта, социальных отношений и национальных ценностей соответствующих народов.

**Ключевые слова:** возраст, edad, концепт, лингвокультурология, когнитивная модель, национально-культурный код, концептуализация, биологический код, временной код, социальный код, аксиологические особенности, испанский язык, узбекский язык.

# NATIONAL-CULTURAL CODES AND COGNITIVE MODELS OF THE CONCEPT “YOSH/EDAD” IN UZBEK AND SPANISH LANGUAGES

**Abstract.** This article examines the national-cultural codes and cognitive models of the “Age/Edad” concept in Uzbek and Spanish from a comparative linguocognitive perspective. It explores the biological, social, psychological, and cultural dimensions of human age and the ways in which this concept is represented in the linguistic consciousness of the two nations. Particular attention is given to lexical units, phraseological expressions, and figurative constructions associated with childhood, youth, adulthood, and old age. The study identifies the biological, temporal, natural, social, and axiological codes of the “Age/Edad” concept and examines their shared and culture-specific features in Uzbek and Spanish. The findings demonstrate that although age has a universal biological foundation, its conceptual content is shaped by the historical experience, social relationships, and national values of each linguistic community.

**Keywords:** age, edad, concept, linguoculturology, cognitive model, national-cultural code, conceptualization, biological code, temporal code, social code, axiological features, Spanish language, Uzbek language.

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlari, milliy dunyoqarashning lisoniy ifodasi hamda inson ongida shakllanadigan konseptual strukturalarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, muayyan tushunchalarning turli xalqlar madaniyatida qanday anglanishi, baholanishi va til vositasida ifodalanishini tadqiq etish kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiyaning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki til nafaqat axborot almashish vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va borliq haqidagi tasavvurlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab tizimdir.

Inson hayotining ajralmas kategoriyasi bo‘lgan yosh tushunchasi ham ana shunday ko‘p qirrali konseptual birliklardan biridir. Yosh insonning biologik rivojlanishi va umr davomiyligini ifodalash bilan birga, uning jamiyatdagi mavqeyi, hayotiy tajribasi, ijtimoiy mas’uliyati, ruhiy yetukligi hamda avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarini ham aks ettiradi. Shu sababli yosh kategoriyasini faqat vaqt yoki biologik o‘lchov sifatida talqin qilish uning mazmunini to‘liq ochib bermaydi.

Ispan tilidagi edad va o‘zbek tilidagi yosh birliklari inson hayotining turli bosqichlarini ifodalashda asosiy nominativ vositalardan hisoblanadi. Biroq ularning semantik imkoniyatlari va madaniy mazmuni muayyan jihatlari bilan farqlanadi. O‘zbek tilida yosh kategoriyasi ko‘pincha kattaga hurmat, kichikka izzat, avlodlar davomiyligi, hayotiy tajriba va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ispan tilida esa edad temprana, edad adulta, tercera edad, edad de oro kabi birikmalar inson hayotining muayyan davrlarini, ijtimoiy mavqeyini va vaqt bilan bog‘liq madaniy tasavvurlarni ifodalaydi.

Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida keksalik ko‘pincha donolik, hurmat, tajriba va nuroniylik bilan bog‘lansa, ispan tilida tercera edad tushunchasi keksalikni hayotning alohida bosqichi sifatida ifodalash bilan birga, faol hayot tarzi va ijtimoiy

faollik mazmunini ham qamrab oladi. Bu holat bir xil biologik jarayon turli madaniyatlarda o‘ziga xos konseptual va aksiologik xususiyatlar kasb etishini ko‘rsatadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi ispan va o‘zbek tillaridagi yosh konseptini qiyosiy o‘rganish orqali ikki xalqning yoshga, avlodlar munosabatiga, inson kamolotiga va hayotiy tajribaga oid milliy tasavvurlarini aniqlash imkoniyati bilan belgilanadi. Bunday tadqiqot natijalari nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va chet tillarini o‘qitish metodikasi uchun ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ispan va o‘zbek tillarida “Yosh/Edad” konseptining milliy-madaniy kodlarini aniqlash, uning kognitiv modellarini tavsiflash hamda ikki xalqning yosh kategoriyasiga munosabatidagi mushtarak va farqli jihatlarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun yosh konseptining semantik tarkibini aniqlash, uning asosiy hayotiy bosqichlarini tavsiflash, milliy-madaniy kodlarini tasniflash va ikki tildagi obrazli ifodalarni qiyosiy tahlil qilish vazifalari belgilandi.

## MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Konsept tushunchasi zamonaviy kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u inson ongida shakllanadigan bilimlar, tasavvurlar, tajribalar va qadriyatlarning yaxlit tizimini ifodalaydi. Konseptning mazmuni faqat lug‘aviy ma’no bilan chegaralanmaydi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va ijtimoiy munosabatlari bilan ham boyib boradi.

J. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi mavhum tushunchalarni insonning kundalik tajribasi va konkret obrazlar orqali anglash mexanizmlarini izohlaydi. Olimlarning qarashlariga ko‘ra, inson tafakkurida vaqt, hayot, yosh va taraqqiyot kabi mavhum tushunchalar ko‘pincha fazoviy, tabiiy hamda harakatga oid obrazlar vositasida konseptuallashtiriladi. Ushbu nazariy yondashuv yosh konseptini ham inson hayotiy tajribasi bilan bog‘liq obrazlar tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi [1].

Z. Kövecsesning konseptual metafora va madaniyat munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari metaforik modellarning nafaqat universal, balki milliy-madaniy xususiyatlarga ham ega ekanligini asoslaydi. Uning yondashuvida bir xil tushunchaning turli xalqlar tafakkurida turlicha obrazlar, assotsiatsiyalar va baholash mezonlari orqali shakllanishi muhim o‘rin tutadi [2]. Bu qarash ispan va o‘zbek tillaridagi yosh konseptining qiyosiy tahlili uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

A. Wierzbicka til birliklarini milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida o‘rganadi. Uning lingvomadaniy yondashuvi turli xalqlarning tushunchalarni anglashida til, madaniyat va milliy mentalitetning o‘zaro ta’sirini aniqlashga yordam beradi [3]. Mazkur yondashuv asosida yosh konseptining faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki unga bog‘liq ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarni ham tahlil qilish mumkin.

Y.S. Stepanov konseptni madaniyatning inson ongida namoyon bo‘ladigan asosiy birliklaridan biri sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida konsept muayyan xalqning tarixiy va madaniy tajribasini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab semantik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Bu yondashuv yosh kategoriyasini biologik hodisa doirasidan chiqarib, uning tarixiy, ijtimoiy va madaniy mazmunini ham o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur mavzuga bevosita aloqador tadqiqotlarda ham ispan va o‘zbek tillaridagi edad konseptining semantik hamda milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, Z.P. Achilovaning “Semantics of the lexeme EDAD as a central lexeme of the nominative field of the concept of ‘Age’ in Spanish and Uzbek languages” nomli maqolasida edad leksemasining konsept nominativ maydonidagi markaziy o‘rni va semantik xususiyatlari tahlil qilingan [5]. Muallifning “Ispan va o‘zbek tillarida ‘EDAD’ tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘chma ma’nolarni idrok etishning milliy o‘ziga xos xususiyatlari” nomli tadqiqotida esa yosh tushunchasining ko‘chma ma’nolari va ularni anglashdagi milliy tafovutlarga e’tibor qaratilgan [6].

Shuningdek, muallifning tarjima jarayonida murakkab morfologik hodisalar, sintaktik konstruksiyalar hamda og‘zaki matn tarjimasining fonetik va leksik qiyinchiliklariga bag‘ishlangan ishlari ispan va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik tafovutlarni o‘rganish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir [7; 8]. Ushbu tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik doirasida milliy til xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, konseptning nazariy asoslari, metaforik xususiyatlari va milliy-madaniy mazmuni turli ilmiy yondashuvlarda o‘rganilgan. Biroq ispan va o‘zbek tillaridagi “Yosh/Edad” konseptining biologik, vaqt, tabiiy, ijtimoiy va aksiologik kodlarini yagona qiyosiy-kognitiv tizim doirasida izchil tavsiflash ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot qiyosiy-lingvokognitiv va tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, unda ispan va o‘zbek tillaridagi yosh konseptining mazmuniy, strukturaviy hamda milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini konseptual metafora nazariyasi, lingvokulturologik yondashuv va kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari tashkil etdi [1–4].

Tahlil jarayonida qiyosiy-tavsifiy, komponent, semantik, konseptual va lingvomadaniy interpretatsiya metodlari qo‘llanildi. Qiyosiy-tavsifiy metod yordamida ispan tilidagi edad va o‘zbek tilidagi yosh birliklarining umumiy hamda farqli jihatlari aniqlandi. Komponent tahlil orqali mazkur birliklarning biologik, vaqt, ijtimoiy va baholovchi semalari ajratib ko‘rsatildi. Konseptual tahlil esa yosh kategoriyasining inson ongida shakllanishiga asos bo‘ladigan obrazlar, assotsiatsiyalar va kognitiv munosabatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik materiallarini ispan va o‘zbek tillaridagi yosh kategoriyasini ifodalovchi leksik birliklar, turg‘un birikmalar, frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar hamda badiiy ifodalar tashkil etdi. Materiallarni tahlil qilishda ularning bevosita lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, kontekstda yuzaga chiqadigan ko‘chma va madaniy mazmuniga ham e’tibor qaratildi.

Tadqiqot doirasida yosh konseptining quyidagi to‘rtta asosiy hayotiy bosqichi ajratildi: bolalik (infancia), yoshlik (juventud), yetuklik (madurez) va keksalik (vejez). Mazkur bosqichlar yosh konseptining ichki semantik tuzilishini tavsiflash va ikki tilda ifodalangan milliy-madaniy tasavvurlarni qiyoslash uchun asosiy tahlil birliklari sifatida belgilandi.

Shuningdek, konsept mazmunini tizimli o‘rganish maqsadida beshta asosiy milliy-madaniy kod: biologik, vaqt, tabiiy, ijtimoiy va aksiologik kodlar ajratildi. Ushbu tasnif yosh tushunchasining inson hayotidagi tabiiy jarayonlar bilan bir qatorda, jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq jihatlarini ham izchil o‘rganish imkonini berdi.

## NATIJALAR

Ispan va o‘zbek tillaridagi “Yosh/Edad” konseptining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur konsept ikki xalqning lisoniy ongida umumiy biologik asosga ega bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos milliy-madaniy mazmun bilan ham tavsiflanadi. Har ikki tilda inson yoshi tug‘ilishdan boshlanadigan, rivojlanish, yetuklik va qarish bosqichlarini qamrab oladigan uzluksiz jarayon sifatida ifodalanadi. Biroq yoshning ijtimoiy mavqe, hayotiy tajriba va qadriyatlar bilan bog‘liq talqinida muayyan farqlar kuzatiladi.

O‘zbek tilidagi yosh leksemasi semantik jihatdan ko‘p qirrali bo‘lib, insonning umr davomiyligi va hayot bosqichlarini anglatish bilan birga, ayrim kontekstlarda yoshlik, navqironlik va avlodga mansublik ma’nolarini ham ifodalaydi. Ispan tilidagi edad leksemasi esa, asosan, insonning yoshi, hayot davri va muayyan vaqt oralig‘ini bildiradi. Har ikki birlikning asosiy semantik mazmunida vaqt va inson hayoti o‘rtasidagi munosabat yetakchi o‘rin tutadi.

Ispan tilida edad temprana (erta yosh), edad adulta (voyaga yetganlik davri), tercera edad (keksalik davri), edad de oro (oltin davr) kabi birikmalar yoshning turli konseptual qatlamlarini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “bolalik davri”, “yoshlik chog‘lari”, “yetuk yosh”, “keksalik davri”, “umr bahori”, “oltin yosh” kabi birliklar orqali inson hayotining turli bosqichlari tasvirlanadi.

Ushbu birliklarning semantik tahlili yosh konseptining faqat biologik o‘lchov bilan cheklanmasligini, balki vaqt, tajriba, ijtimoiy maqom va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, edad de oro va “oltin davr” birikmalarida yosh yoki vaqtning qadrli, samarali va ijobiy baholangan bosqichi nazarda tutiladi. Demak, har ikki tilda ham yosh tushunchasi metaforik va aksiologik mazmun kasb eta oladi.

Yosh konseptining biologik kodi. Biologik kod inson organizmining tabiiy rivojlanishi, ulg‘ayishi, yetilishi va qarishi bilan bog‘liq. Ushbu kod yoshning universal xususiyatlarini aks ettiradi. Ispan tilidagi nacer (tug‘ilmoq), crecer (o‘smoq, ulg‘aymoq), envejecer (qarimoq) fe’llari inson hayotining tabiiy bosqichlarini ifodalasa, o‘zbek tilidagi “tug‘ilmoq”, “ulg‘aymoq”, “voyaga yetmoq”, “qarimoq” birliklari ham shu mazmunni anglatadi.

Biologik kodning muhim xususiyati shundaki, u milliy-madaniy tafovutlardan qat’i nazar, inson hayotining tabiiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Biroq ushbu jarayonlarning til vositasida baholanishi va tasvirlanishi har bir xalqning madaniy tajribasi bilan boyib boradi. Shu jihatdan biologik kod yosh konseptining universal asosini tashkil etsa, boshqa kodlar uning milliy o‘ziga xosligini namoyon qiladi.

Yosh konseptining vaqt kodi. Yosh kategoriyasi vaqt tushunchasi bilan bevosita bog‘liq. Inson yoshi umr davomiyligi, yillarning o‘tishi, avlodlar almashinuvi va hayotiy tajribaning ortishi orqali anglanadi. Ispan tilidagi el paso de los años (yillarning o‘tishi), con el paso del tiempo (vaqt o‘tishi bilan), los años dorados (oltin yillar) birikmalari vaqtning inson hayotiga ta’sirini ifodalaydi.

O‘zbek tilida esa “umrning o‘tishi”, “yillar silsilasi”, “umr bahori”, “hayotning oltin davri” kabi ifodalar vaqt va inson hayoti o‘rtasidagi uzviy munosabatni aks ettiradi. Ayniqsa, “umr bahori” birikmasida yoshlik davri tabiatdagi yangilanish va gullash jarayoni bilan qiyoslanadi. Bu holat mavhum vaqt tushunchasining konkret tabiat obrazlari yordamida anglanishini ko‘rsatadi.

Vaqt kodi doirasida yosh inson hayotining o‘tkinchiligi, davriyligi va uzluksizligini ifodalaydi. Har ikki tilda ham vaqtning o‘tishi ba’zan betaraf jarayon, ba’zan esa inson hayotidagi qadrli imkoniyatlarning kamayishi yoki tajribaning ortishi sifatida baholanadi.

Yosh konseptining tabiiy kodi. Tabiiy kod inson hayotining turli bosqichlarini tabiat hodisalari, fasllar, o‘simliklarning o‘sishi va gullashi bilan bog‘liq holda tasavvur qilishga asoslanadi. Ushbu kodda yoshlik ko‘pincha bahor, tong, gullash va yangilanish obrazlari orqali ifodalanadi. Yetuklik esa hosilning pishishi, mevaning yetilishi va tabiatning to‘laqonli rivojlanishi bilan qiyoslanadi.

O‘zbek tilidagi “umr bahori”, “yoshlik gullari”, “umrning kuz fasli” kabi obrazli ifodalar yosh konseptining tabiiy kodini namoyon etadi. Ispan tilida ham la primavera de la vida (hayot bahori) kabi metaforik ifodalar yoshlikni bahor fasli bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bunday o‘xshashlik insoniyatga xos umumiy tajriba va tabiat hodisalarining kognitiv idrokdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tabiat obrazlarining muayyan kontekstda qanday baholanishi milliy-madaniy xususiyatlarga ega. Yoshlikning bahor bilan bog‘lanishi yangilanish, go‘zallik va imkoniyatlar mazmunini anglatsa, keksalikning kuz bilan qiyoslanishi hayotiy tajriba, pishganlik va umrning muayyan bosqichiga yetib kelish ma’nolarini yuzaga chiqaradi.

Yosh konseptining ijtimoiy kodi. Ijtimoiy kod inson yoshining jamiyatdagi mavqeyi, huquq va majburiyatlari, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ijtimoiy

mas’uliyat bilan bog‘liq mazmunini ifodalaydi. Bu kod ispan va o‘zbek lingvomadaniyatlarida muayyan farqlar bilan namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida yosh kategoriyasi ijtimoiy munosabatlarning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. “Kattaga hurmat, kichikka izzat”, “yoshiga yarasha ish tutmoq”, “ko‘pni ko‘rgan”, “yoshi ulug‘” kabi birlik va ifodalarda insonning yoshi uning jamiyatdagi mavqeyi, tajribasi va hurmatga loyiqligi bilan bog‘lanadi. Ayniqsa, yoshi ulug‘ insonlarga hurmat ko‘rsatish, ularning fikrini qadrlash va hayotiy tajribasidan foydalanish o‘zbek madaniyatining muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biridir.

Ispan tilida esa tercera edad birikmasi keksalikni inson hayotining alohida ijtimoiy bosqichi sifatida ifodalaydi. Ushbu tushuncha nafaqat yoshning biologik chegarasini, balki jamiyatdagi ijtimoiy maqom, mustaqillik va faol hayot tarzini ham qamrab olishi mumkin. Shu sababli mazkur birlikning mazmuni faqat qarilik yoki jismoniy zaiflik bilan cheklanmaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek tilida yosh va ijtimoiy hurmat o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchliroq namoyon bo‘lishi, ispan tilida esa yosh bosqichlarini nomlashda hayot davri va ijtimoiy faoliyatga oid mazmunning alohida o‘rin tutishi kuzatiladi. Bu xususiyatlar yosh konseptining milliy-madaniy o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan hisoblanadi.

Yosh konseptining aksiologik kodi. Aksiologik kod inson yoshining ijobiy yoki salbiy baholanishi, uning qadriyatlar tizimidagi o‘rni bilan bog‘liq. Mazkur kodda yosh, tajriba, donolik, go‘zallik, kuch-quvvat, imkoniyat va mas’uliyat kabi tushunchalar o‘zaro munosabatga kirishadi.

O‘zbek tilida keksalik ko‘pincha hurmat, donolik, hayotiy tajriba va nuroniylik bilan bog‘lanadi. “Yoshi ulug‘”, “nuroniy inson”, “hayot maktabini o‘tagan” kabi ifodalarda keksalik ijobiy baholovchi mazmun bilan namoyon bo‘ladi. Yoshlik esa kuch-g‘ayrat, orzu-intilish, kelajak va imkoniyatlar bilan bog‘lanadi.

Ispan tilidagi edad de oro (oltin davr), juventud (yoshlik), madurez (yetuklik) birliklari ham yoshning ijobiy baholanishiga xizmat qiladi. Xususan, madurez tushunchasi insonning nafaqat biologik jihatdan ulg‘ayishini, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan shakllanganligini ham anglatadi. Bu jihatdan o‘zbek tilidagi “yetuklik”, “aqlan kamol topish”, “hayotiy tajriba” kabi tushunchalar bilan mazmuniy yaqinlik kuzatiladi.

Demak, aksiologik kod yoshning oddiy vaqt o‘lchovi emas, balki insonning hayotiy tajribasi, jamiyatdagi qadri va shaxsiy kamolotini baholash vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

## MUHOKAMA

Ispan va o‘zbek tillaridagi “Yosh/Edad” konseptining qiyosiy tahlili yosh kategoriyasini shakllantiruvchi universal va milliy-madaniy omillar o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Har ikki xalq inson hayotini bolalik, yoshlik, yetuklik va

keksalik bosqichlariga ajratadi. Ushbu bosqichlarning biologik asoslari umumiy bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy va aksiologik mazmunida farqlar mavjud.

Birinchi navbatda, yosh konseptining universal jihatlari uning biologik va vaqt kodlarida namoyon bo‘ladi. Insonning tug‘ilishi, o‘sishi, voyaga yetishi va qarishi barcha madaniyatlar uchun umumiy jarayondir. Shu sababli ispan va o‘zbek tillarida mazkur bosqichlarni ifodalovchi birliklar o‘rtasida semantik yaqinlik kuzatiladi. Biroq ushbu bosqichlarning qaysi jihatlari alohida ta’kidlanishi milliy tafakkur va madaniy tajribaga bog‘liq.

Ikkinchidan, tabiiy kodning qiyosiy tahlili yosh konseptining metaforik modellar orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Yoshlikning bahor, tong va gullash bilan bog‘lanishi ikki tilda ham hayotning boshlanishi, yangilanishi va imkoniyatlarga boy davrini anglatadi. Bunday o‘xshashlik konseptual metaforalarning universal asoslarini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, obrazlarning qo‘llanish doirasi va baholovchi mazmuni til hamda madaniyat xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin [1; 2].

Uchinchidan, ijtimoiy kod yosh konseptining milliy o‘ziga xosligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek madaniyatida yosh ko‘pincha avlodlar o‘rtasidagi munosabat, kattalarga hurmat, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq holda anglanadi. Bu holat tilda “yoshi ulug‘”, “kattaga hurmat”, “ko‘pni ko‘rgan” kabi ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Ispan tilidagi tercera edad tushunchasi esa keksalikni alohida hayotiy va ijtimoiy davr sifatida nomlashga xizmat qiladi. Mazkur tafovutlar har ikki xalqning ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

To‘rtinchidan, aksiologik kod doirasida yoshning baholanishi turli hayotiy bosqichlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Yoshlik har ikki madaniyatda kuch, go‘zallik, umid va kelajak bilan bog‘lansa, yetuklik tajriba va mas’uliyatni anglatadi. Keksalikning o‘zbek tilidagi ifodalarida hurmat va donolik mazmuni alohida ko‘zga tashlanadi. Ispan tilida esa tercera edad tushunchasi keksalikni hayotning yangi ijtimoiy bosqichi sifatida anglash imkonini ham beradi. Biroq bu xususiyatlarni barcha ispan yoki o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga bir xil darajada xos deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki individual, hududiy va avlodlararo tafovutlar ham mavjud.

Tadqiqot natijalari yosh konseptining kognitiv tuzilishini bir nechta o‘zaro bog‘liq model asosida tavsiflash imkonini beradi. Birinchi model yoshni inson organizmining tabiiy rivojlanishi bilan bog‘laydi. Ikkinchi model yoshni vaqtning o‘tishi va hayot davomiyligi orqali anglaydi. Uchinchi model yosh bosqichlarini tabiat hodisalari va fasllar bilan qiyoslaydi. To‘rtinchi model inson yoshini jamiyatdagi mavqe va avlodlar munosabati bilan bog‘laydi. Beshinchi model esa yoshni muayyan qadriyatlar asosida baholaydi.

Mazkur modellar alohida-alohida mavjud bo‘lmay, yagona konseptual tizim tarkibida o‘zaro ta’sirlashadi. Masalan, “umr bahori” birikmasida biologik bosqich, vaqt va tabiiy obraz birlashsa, “yoshi ulug‘” ifodasida biologik yosh ijtimoiy maqom va hurmat mazmuni bilan uyg‘unlashadi. Ispan tilidagi edad de oro birikmasida esa vaqt va yoshning ijobiy aksiologik bahosi mujassamlashadi.

Qiyosiy-lingvokognitiv tahlil tarjima jarayoni uchun ham muhim xulosalarni beradi. Chunki yoshga oid birliklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda faqat lug‘aviy muqobilni topish yetarli bo‘lmasligi mumkin. Ayrim birliklarning mazmuni muayyan madaniyatga xos ijtimoiy va qadriyat komponentlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois tarjimon kontekst, kommunikativ vaziyat va milliy-madaniy mazmunni hisobga olishi lozim [5; 6].

Umuman, “Yosh/Edad” konseptining qiyosiy tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligini, inson hayotining universal hodisalari ham milliy tafakkur ta’sirida o‘ziga xos mazmun kasb etishini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv ispan va o‘zbek tillaridagi konseptual tafovutlarni aniqlash, ularning tarjimada berilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda madaniyatlararo muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan semantik nomuvofiqliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Ispan va o‘zbek tillarida “Yosh/Edad” konseptining milliy-madaniy kodlari hamda kognitiv modellarini qiyosiy-lingvokognitiv jihatdan o‘rganish natijasida mazkur konsept universal biologik asosga ega bo‘lishi bilan birga, har ikki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, milliy qadriyatlari va dunyoqarashi ta’sirida o‘ziga xos mazmun kasb etishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida yosh konseptining biologik, vaqt, tabiiy, ijtimoiy va aksiologik kodlari ajratilib, ularning ispan va o‘zbek tillaridagi ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Aniqlanishicha, biologik va vaqt kodlari ikki tilda ham umumiy mazmuniy asosga ega bo‘lib, insonning tug‘ilishi, ulg‘ayishi, yetuklikka erishishi va qarishi kabi tabiiy jarayonlarni aks ettiradi. Tabiiy kodda esa yoshlikning bahor, tong va gullash obrazlari orqali ifodalanishi ikki xalqning konseptual tafakkuridagi mushtaraklikni namoyon etadi.

Ijtimoiy va aksiologik kodlar tahlili esa milliy-madaniy farqlarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, o‘zbek lingvomadaniyatida keksalik ko‘proq hurmat, donolik, nuroniylik va hayotiy tajriba bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ispan tilida tercera edad tushunchasi keksalikni inson hayotining alohida bosqichi sifatida ifodalab, ijtimoiy faollik va mustaqillik mazmunlarini ham qamrab oladi. Shuningdek, har ikki tilda yoshlik kelajak, umid, kuch-g‘ayrat va imkoniyatlar bilan bog‘lanishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, “Yosh/Edad” konseptining qiyosiy-kognitiv modeli beshta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat ekanligi asoslandi. Bular biologik rivojlanish, vaqt davomiyligi, tabiat obrazlari, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimidir. Mazkur komponentlar konseptning mazmuniy yaxlitligini ta’minlab, uning turli lingvistik va madaniy vaziyatlarda namoyon bo‘lishini belgilaydi.

Shuningdek, ispan va o‘zbek tillarida yoshga oid birliklarni tarjima qilishda ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, milliy-madaniy va aksiologik

mazmunini ham hisobga olish zarurligi aniqlandi. Bu jihat, ayniqsa, madaniyatlararo muloqot, badiiy tarjima va ispan tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Yosh/Edad” konseptining qiyosiy-lingvokognitiv tadqiqi ispan va o‘zbek xalqlarining yosh, hayotiy tajriba, avlodlar munosabati va inson kamolotiga oid tasavvurlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlarni frazeologik birliklar, paremiologik materiallar va zamonaviy nutqiy korpuslar asosida davom ettirish konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

2. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

3. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997.

4. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – 3-е изд. – Москва: Академический проект, 2001.

5. Achilova Z. P. Semantics of the Lexeme EDAD as a Central Lexeme of the Nominative Field of the Concept of “Age” in Spanish and Uzbek Languages // International Multidisciplinary Journal for Research Development. – 2025. – Vol. 12. – Issue 1. – P. 51.

6. Achilova Z. Ispan va o‘zbek tillarida “EDAD” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘chma ma’nolarni idrok etishning milliy o‘ziga xos xususiyatlari // Экономика и социум. – 2024. – № 5 (120)-1.

7. Achilova Z. P. Tarjima qilish qiyin bo‘lgan murakkab morfologik hodisalar va sintaktik konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari // Journal of Innovations in Scientific and Educational Research. – 2023. – T. 6. – № 2. – Б. 310–315.

8. Achilova Z. P. Og‘zaki matn tarjimasining fonetik va leksik qiyinchiliklari va uni yengib o‘tish imkoniyatlari // Pedagogs Jurnali. – 2022. – T. 3. – № 1. – Б. 170–178.

9. Ачилова З. П. Синхрон таржима жараёнида мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 31. – № 2. – Б. 23–28.